

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MUMINOV MUHAMMADBOBUR AMIRQUL O‘G‘LI

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA SHAXS DUNYOQARASHI
SHAKLLANISHIGA IJTIMOY TARMOQLARNING TA’SIRI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on philosophical sciences**

Muminov Muxammadbobur Amirqul o‘g‘li

Globalashuv sharoitida shaxs dunyoqarashi shakllanishiga ijtimoiy
tarmoqlarning ta’siri.....

Муминов Мухаммадбобур Амиркул угли

Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения личности в
условиях глобализации.....

Muminov Muhammadbobur Amirkul ugli

The influence of social networks on the formation of an individual’s
worldview in the context of globalization.....

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MUMINOV MUHAMMADBOBUR AMIRQUL O‘G‘LI

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA SHAXS DUNYOQARASHI
SHAKLLANISHIGA IJTIMOY TARMOQLARNING TA’SIRI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/F1234 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) O‘zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musayev Odil Raxmatovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muminov Alisher Gaffarovich
siyosiy fanlari doktori, professor

To‘rayev Shavkat Nishonovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil 3-iyul soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy,. Tel.: 246-39-67 faks: (99871) 246-39-67; (998971) 246-93-79; O‘zbekiston Milliy universiteti Yoshlar ittifoqi binosi kichik zalida o‘tkaziladi.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 93-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24, faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 21-iyun kuni tarqatildi (2025-yil “21”iyundagi 12-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

G.M.Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

O‘.G‘.Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirishning kuchayishi bilan birga axborot texnologiyalari hayotimizning barcha yo'nalishlarida muhim rol o'ynay boshladi. Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya texnologiyalari bugungi jamiyat taraqqiyotining strategik omillaridan biriga bo'lib, rivojlangan davlatlarda ular nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning ajralmas vositasi, balki ommaviy muloqot tizimining asosiy subyektlaridan biriga ham aylangan. Ushbu texnologiyalar insoniyatning global muammolarini hal qilishda hamda ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni boshqarishda muhim rol o'ynamoqda. Hozirgi davrda axborot makonining gomogenlashuvi ilmiy-texnikaviy va texnologik yutuqlarning keng miqyosda tarqalishi, shuningdek, ularning global taraqqiyotga qo'shgan hissasi bilan bog'liq holda rivojlanmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar davlatlar imijini shakllantirishda, shu jumladan, davlatlarning tasavvur qilib bo'lmay yutuqlarini butun omma mediada juda yaxshi tarqatishidagi roli borgan sari ortib bormoqda. Bu jarayonlar zamonaviy axborot jamiyatida davlatlar o'rtasidagi raqobat va hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zero, insoniy qadriyatlarning axloqiy tamoyillarga zid bo'lgan shakllarda keng tarqalishi va shaxsning dunyoqarashiga begona bo'lgan g'oyalarning kuchli ta'siri insoniyatning milliy-ma'naviy asoslaridan uzilishiga hamda o'ziga xoslikni yo'qotishiga olib kelmoqda. Bu harkatlar natijasida shaxsning madaniy va ma'naviy dunyoqarashi zaiflashib, ijtimoiy hamjihatlikning barqarorligi xavf ostida qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali taqdim etilayotgan ushbu omillarning shaxs dunyoqarashiga ta'siri, ularning oqibatlari va potensial tahdidlarini aniqlash zamonaviy jamiyat uchun dolzarb ahamiyatga ega. Bu shaxsning ma'naviy va psixologik jihatdan shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning o'zgarishiga olib kelmoqda.

Dunyoda rivojlangan davlatlar fuqarolarning madaniy saviyasi, xulq-atvor namunalari va ijtimoiylashuv jarayonlarini shakllantiruvchi ong, qadriyatlar hamda jamiyatda ishonchni mustahkamlashga qaratilgan mafkuraviy tarbiya tizimlari muhim rol o'ynamoqda. Globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish bilan birga, insoniyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, shaxs dunyoqarashi va ijtimoiy ongining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarining roli tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rinib turibdiki, fuqarolarning madaniy saviyasi, xulq-atvor me'yorlari va ijtimoiylashuv jarayonlarini shakllantirishda ong, qadriyatlar va jamiyatda ishonchni mustahkamlovchi mafkuraviy tarbiya tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida zamonaviy kommunikatsiya vositalari – ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxs ongiga ma'naviy-mafkuraviy ta'sir o'tkazish, milliy qadriyatlarni susaytirish, tarixiy xotirani o'zgartirish, milliy manfaatlariga tahdid soluvchi g'oyaviy tuzoqlarni shakllantirishga qaratilgan harakatlar kuchaymoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning madaniy, ma'naviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur muammolarga qarshi kurashishda ijtimoiy, huquqiy va falsafiy yondashuvlar asosida samarali choratadbirlar ishlab chiqish, axborotlashgan jamiyatda shaxs dunyoqarashining shakllanishi jarayonlarini ilmiy asosda o'rganish hamda ularni milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi

nazardan, ijtimoiy tarmoqlarning shaxs ongiga ko'rsatuvchi ta'sir mexanizmlarini falsafiy jihatdan o'rganish zarurati vujudga kelmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar, shubhasiz, axborot xavfsizligini ta'minlash, milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrash va zamonaviy jamiyat barqarorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Globalashuv sharoitida O'zbekistonda shaxs dunyoqarashi shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siriga oid muammolarga qarshi kurashishda ijtimoiy, huquqiy va falsafiy yondashuvlar asosida samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish, axborotlashtirilgan jamiyatda shaxs dunyoqarashining shakllanishi jarayonlarini ilmiy asosda o'rganish hamda ularni milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, O'zbekistonning tarixi va hozirgi yutuqlarini dunyoga tanitish, davlat nomini yuksaltirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha muhim ishlar qilinmoqda. "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziqa kerak"¹. Bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga bo'lgan mehr va sadoqatni kuchaytirish, ularni turli buzg'unchi ta'sirlardan ogohlantirish va himoya qilish eng muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2023-yil 11-sentabrdagi PF 158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida farmoni va undagi 44 ta maqsad, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasining "Internet jahon axborot tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganish natijalari to'g'risida"gi 2024-yil 3-iyuldagi 123-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qonuni hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Globalashuv jarayonida shaxs dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri bilan bog'liq mavzu alohida mustaqil mavzu sifatida o'rganilgan emas. Ammo inson ongi, dunyoqarashi va axloqiga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlar masalasi butun Sharq-u G'arb mutafakkirlarining doimiy diqqat markazida turgan. Ularni umumlashtirgan holda,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-taqdiri-va-kelajagi-yo'lida-yanada-ahamiyatli-bo'lib--15-06-2017>

bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim mutafakkirlarini kiritish mumkin. Jamiyatda insonlarni barqaror yashashlari, tinch va farovon hayot kechirishlari uchun ular o'rtasida munosabatlar samimiy, iliq bo'lish, dushmanlik esa taraqqiyotga nisbatan katta xavf ekanligini qadimgi Xitoy mutafakkirlari Konfutsiy, yunon faylasuflari Platon, Aristotel¹, Qadimgi Rim mutafakkiri Siseron ilgari surganlar. Ikkinchi guruhga X-XV asrlarda yashagan Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy², Yusuf Xos Hojib³, Ibn Sino⁴, Nizomulmulk kabilarni kiritish mumkin. Ular o'z asarlarida yaxshilik va yomonlik, ahloqlilik va axloqsizlikning mohiyati, ular o'rtasidagi ziddiyatlar va ularning yuzaga kelish manbalari hamda jamiyatda va insonlararo munosabatlarning adolat, o'zaro oqibat asosida qurishning ahamiyati, xalq merosi va ma'naviyatini asrash haqidagi g'oyalarni ilgari surganlar. Uchinchi guruhga G'arbda Uyg'onish va yangi davrda yashab ijod qilgan mutafakkirlar N.Makiavelli (1469-1527), T.Gobbs (1588-1679), J.Lokk, J.J.Russo⁵ (1712-1778) va boshqalarni kiritish mumkin. Garchand ular aynan shaxs dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri haqida fikr bildirmagan bo'lsalar ham, uni davlatning shakllanishiga sabab bo'lgan voqealar, uni boshqarishda paydo bo'lgan muammolar va ularni yechishda ishlatish zarur bo'lgan ishlar haqida bildirgan fikrlari bilan uyg'unlashgan deb hisoblash mumkin. To'rtinchi guruhga Z.Bjezinskiy, E.Toffler, F.Fukuyama, S.Xantington, A.Dj.Toynbi, P.J.Byukenen, J.Koleman kabilarni kiritish mumkin. Bu mualliflar fikrlarining mavzuimizga taalluqli jihati shundaki: a) ularni fikrlaridan ma'lum bo'layotgan muhim masala – bugun dunyoning ziddiyatlar girdobida hayot kechirayotgan, uning turli tahdidlarga muhtalo bo'lgani; b) bu tahdidlar negizida shaxs ijtimoiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri va insonlarning ma'naviy qashshoqlashuvi turganligini ko'rsatganligidir.

Globalashuv sharoitida shaxs dunyoqarashining shakllanishini belgilab beruvchi axborotlashgan jamiyat, axborot tahdidi va ijtimoiy tarmoqlar hamda ularning inson ongiga ta'siri borasida mamlakatimiz olimlaridan Z.Davronov⁶, N.Dehqonov⁷, T.Jo'rayev, A.Muminov, O.Musayev, S.Otamuratov⁸, B.Ochilova⁹,

¹ Платон. Соч. В 3-х т. Пер. Под общ. Ред. А.Ф.Лосева и др. – М.: Мысль, 1972; Аристотель. Этика. – М.: Эксмо, 2022.

² Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016; Абу Наср Фаробий. Фазилят, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2001.

³ Yusuf Xos Hojib. Tafakkur kitobi. – Toshkent: Movarounnahr, 2010; Yusuf Xos Hojib. Kimyo va saodat. – Toshkent: Adabiyot, 2010.

⁴ Абу Али ибн Сино. Саломон ва Ибсол. – Тошкент: Фафур Фулом, 1980.

⁵ Гегель. Философия права. – М.: Юрист, 1990. – 202 с.; Гелветсий К. О человеке, его умственных способностях и его воспитании. – М.: Сосекгиз, 1938. – 483 с.; Гоббс Т. Избранные произведения: в 2 т. / Т.Гоббс. – М.: Мысль, 1989. Т. 2. – 715 с.; Гротсий Г. “О праве войны и мира”. – М., 1956. – 74 с.; Кампанелла Т. Город Солнца // Утопический роман XVII-XVIII вв. – М., 1971. – С. 15; Локк Дж. Сочинения: В 3 т. / Монтеке III. О духе законов / III.Монтеке. – М.: Мысль, 1999. – 672 с.; Макиавелли Н. Сочинения / Н.Макиавелли. – СПб.: Кристалл, 1996. – 615 с.; Жан Жак Руссо. Об общественном договоре: Трактаты. – М.: Терра-книжный клуб; Канонпресс, 2000. – 544 с.

⁶ Davronov Z. Dialektika qonunlari, kategoriyalari, tamoillar bilish falsafasi. – T.: Moliya iqtisod, 2024 va Barkamollikka dav'at maktublari. – Toshkent: Tamaddun, 2017.

⁷ Каримов И. Ноосфера: геосиёсат ва мафкура. – Тошкент: Фан, 2007; Каримов И. Имон ва маслак тарихи. – Тошкент: Yangi nashr, 2010; Чориев А. Инсон фалсафаси. – Тошкент: Ўз.Ф.М.Ж., 2007; Чориев А. Инсон фалсафаси. II қисм. Мустақил шахс. – Тошкент: Чинор, 2002; Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. – Тошкент: Маънавият, 2007.

⁸ Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008,

⁹ Очиллова Б. Шахс маънавий камолотида ихлосмандлик ва ибрат бирлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004; Очиллова Б. Миллий маънавий юксалишда мерос, кадриятлар ва ворисийлик. – Тошкент: Истоклол, 2009.

Z.Qodirova¹, M.Quronov, V.Qo‘chqorov, I.Saifnazarov², R.Samarov, I.Suvonov³, G.Tulenova⁴, Sh.Turayev⁵, B.To‘ychiyev, B.Umarov⁶, B.Xasanov, Sh.G‘oyibnazarov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bu mualliflarning qarashlarini beshinchi guruhga kiritish mumkin. Ularning asarlarida globallashuv tushunchasi, axborot xavfsizligi, uning milliy ma‘naviyatga, shaxs dunyoqarashiga ta‘siri masalalari, millatlararo munosabatlar va ularning rivojlanish jarayonlari kabi masalalar ochib berilgan. Ayniqsa, jamiyatni har tomonlama isloh qilish sharoitida O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligini oshirish muammolari, yoshlar ongiga va yoshlar tarbiyasiga ta‘sir bo‘yicha falsafa fanlari doktori, professor Z.Qodirova, shu bilan birgalikda, yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma‘naviy omillarning ro‘li va yoshlar tarbiyasini ilmiy jihatdan falsafa fanlari doktori, professor G.Tulenova, jamiyat barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha siyosiy fanlar doktori, professor Sh.G‘oyibnazarov shaxs, ayniqsa, yoshlar ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan “Ommaviy madaniyat” omilini ilmiy jihatdan tadqiq etgan. A.Mansurov globallashuv va axborot jamiyatida shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy tarmoqlarning ta‘siri va o‘zlikni anglash masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan. D.Saidova ilmiy tadqiqotlari globallashuv davrida shaxsning ijtimoiy moslashuvi va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimlarining dunyoqarashga ta‘siri masalalarini o‘z ichiga oladi. K.Nishonov ilmiy ishlari orqali globallashuv sharoitida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining falsafiy asoslarini, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsning ijtimoiy hayotga munosabatini tadqiq etgan. O‘.Rashidov globallashuv va axborot jamiyati kontekstida yoshlarning axloqiy hamda dunyoqarashlari shakllanishi haqida ilmiy maqolalar yozgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning asarlarida hamda ilmiy tadqiqotlarida globallashuv sharoitida shaxs dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta‘siri bevosita va bilvosita maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Shu bilan birga, olimlarning ishlari davr va vaqt nuqtayi nazardan o‘rganilish obyekti nazardan farq qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan mosligi. Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasining 7,5-bandidagi “Demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy hamda sotsial-iqtisodiy islohatlarning mushtarakligi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Globallashuv sharoitida shaxs dunyoqarashiga shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta‘sirini tahlil qilishdan iborat.

¹ Qodirova Z. “Jamiyatni har tomonlama isloh qilish sharoitida O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligini oshirish muammolari”. Fals. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – T., 15-25 b.

² Саифназаров И., Косимов Б., Мухторов А., Никитченко Г. Фаннинг фалсафий масалалари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2007; Саифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарк, 2001; Саифназаров И., Саифназарова Ф. Ёшлар ва оила – Ватан таянчи. – Тошкент: Таълим, 2018, Саифназаров И. Янги Ўзбекистон: инсон кадрлари улуғланган юрт. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2023.

³ Suvonov I. “Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion texnologiyalari”. Fals. fan. d-ri ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024.

⁴ Туленова Г. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилларнинг роли (ижтимоий фалсафий таҳлил). Фалс. фан. д-ри ... дисс. автореферати. – Т., 17-28 б.

⁵ То‘раев Ш. Yangi O‘zbekiston: Ma‘naviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – T.: Afzalzoda, 2023; Tўраев Ш. Миллий ғоя ва мафкуралар тарихи. – Тошкент: Муҳаррир, 2022.

⁶ Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: Маънавият, 2006.

Tadqiqotning vazifalari:

“Globallashuv” va “Tahdid”, “Ijtimoiy tarmoq” tushunchalarning mazmuni va mohiyatini hamda ularning milliy ma’naviyat bilan bog‘liq munosabatlarni ochib berish;

ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirida shaxs dunyoqarashining shakllanishida tahdidlarning yuzaga kelishining sabablarini va negizlarini aniqlash;

shaxs dunyoqarashi shakllanishida bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazuvchi tahdidlarning ma’no-mazmunini ochiqlash hamda ularning shakllarini tizimlashtirish;

O‘zbekistonda milliy mafkura asosida shaxs dunyoqarashi va ijtimoiy madaniyati rivojlantirishga qaratilgan taklif hamda xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti globallashuv sharoitida shaxs dunyoqarashining shakllanishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy munosabatlar hamda ushbu munosabatlarda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni va roli.

Tadqiqotning predmeti globallashuv jarayonining zamonaviy bosqichida shaxs dunyoqarashiga ijtimoiy tarmoqlarning bevosita hamda bilvosita ta’siri, mazkur ta’sirning ijtimoiy-falsafiy asoslari, ziddiyatlari va oqibatlarini.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy yondashuv, kuzatuv, analiz va sintez, komparativ metod, kontent-tahlil, vaziyatli tahlil va bilishning boshqa metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarda yumshoq kuchlar o‘z strategik maqsadlardan kelib chiqqan holda, shaxs onggi va tafakkuriga turli OAVdan foydalanib jamiyatning ijtimoiy-siyosiy madaniyati hamda mafkurasiga ta’sir o‘tkazuvchi raqamli kontentlar (video, audio, animatsiya, mem, chellendj, vayn)da ilgari surilgan “subminimal signallar” yordamida jamiyat barqaror taraqqiyotini beqaror holatga o‘tkazuvchi omillar ilmiy asoslangan;

“Submadaniyatlar targ‘iboti” davrida shaxs dunyoqarashini boshqarishda vayronkor g‘oyalardan ijtimoiy tarmoqlar ko‘magida o‘z maqsadlarini amalga oshirishda jamiyatda o‘rnatilgan erkin diniy munosabatlardan qo‘shirnoq ichida “oqilon g‘oyalar”ni singdirishda mafkuraviy qurol sifatida foydalanuvchi guruhlar faoliyati ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, ma’naviy va mafkuraviy jihatlati dealiktik kuzatuvlarga ko‘ra ilmiy dalillangan;

jamiyatning tahdidbardoshlik darajasini oshirishda Internet ijtimoiy-maishiy kommunikatsiya vositalaridan yoshlarni “yangicha axloq” tahdidi, ya’ni axloqiy relativizm – umumiy axloqiy me’yorlar va qadriyatlarining yo‘qolishdan himoya vositasi sifatida axborot filtri, interfaollik (teskari aloqa), anonimlik (yashirin ta’sir) va axborot taqdim etish funksiyalari imkonini beruvchi psixo-emotsional ta’sirga ega axborot tanqisligini kompensatsiyalash (mavjud axborot o‘rnini to‘ldirish) hamda O‘zbekiston raqamli imidjini oshirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar berilgan;

shaxs dunyoqarashini rivojlantirishda axbarot makonida manipulyativ harakterga ega fake (yolg‘on xabar) xabarlardan jamoatchilik ongi va tafakkurini himoyalash mexanizmi sifatida “Raqamli dunyoqarash” funksiyasini shakllantirishga oid maxsus tashkillangan yashirin ta’sir; tasavvurlarni sxemalashtirish; xulq-atvorni dasturlashtirish hamda manipulyativ ta’sirga uchragan obyekt xatti-harakatlarining ehtimoliy natijalarini oldindan taxmin qilish kabi xalqaro ilmiy-nazariy tajribalar yordamida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning ijtimoiy madaniyatini rivojlantirishda mafkuraviy omillarning mohiyati, turlari, shuningdek, milliy mafkura omilini konseptual rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kechagi va bugungi tarixiy tajribani tanqidiy jihatdan o'rganish asosida shaxslarning ijtimoiy ongi hamda madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlarning rolini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, amaliy taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati globallashtirish sharoitida shaxs dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri va ma'naviy-mafkuraviy asoslarini o'rganishning nazariy jihatlarini yanada boyitish, oliy ta'lim muassasalarida milliy mafkura bilan bog'liq fanlarni o'qitishda, ma'ruza matnlari hamda o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va harbiy ta'lim muassasalarida "Falsafa", "Axborot xavfsizligi", "Elektron hukumat" kabi fanlarni o'qitishda, joylarda amalga oshiriladigan shaxs ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish sohasidagi targ'ibot ishlarida, harbiy qismlarda, ijtimoiy jarayonlar bilan shug'ullanuvchi davlat fuqarolik xizmatchilari, nodavlat-notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatida tadqiqot natijalarini qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning natijalari, undagi ilmiy xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilayotgani bo'yicha quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan:

globallashtirish sharoitida ijtimoiy tarmoqlarda yumshoq kuchlar o'z strategik maqsadlardan kelib chiqqan holda, shaxs ongi va tafakkuriga turli OAVdan foydalanib jamiyatning ijtimoiy-siyosiy madaniyati hamda mafkurasiga ta'sir o'tkazuvchi raqamli kontentlar (video, audio, animatsiya, mem, chellendj, vayn)da ilgari surilgan "subminimal signallar" yordamida jamiyat barqaror taraqqiyotini beqaror holatga o'tkazuvchi omillar ilmiy asoslangan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining V yo'nalichida belgilangan "Jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlash masalalari" 24-bandi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan monitoring hamda sotsiologik tadqiqotlarni tizimli tashkil qilish va o'tkazish choralari ko'rish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 02/01/19-1048-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining Yangi O'zbekiston yoshlarining dunyoqarashi shakllanishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, ijobiy ta'sir ko'rsatishida ijtimoiy tarmoqlarning o'zni va samaradorligi ko'rsatib berishda xizmat qilgan;

jamiyatning tahdidbardoshlik darajasini oshirishda Internet ijtimoiy-maishiy kommunikatsiya vositalaridan yoshlarni “yangicha axloq” tahdidi, ya’ni axloqiy relativizm – umumiy axloqiy me’yorlar va qadriyatlarining yo‘qolishdan himoya vositasi sifatida axborot filtri, interfaollik (teskari aloqa), anonimlik (yashirin ta’sir) va axborot taqdim etish funksiyalari imkonini beruvchi psixo-emotsional ta’sirga ega axborot tanqisligini kompensatsiyalash (mavjud axborot o‘rnini to‘ldirish) va O‘zbekiston raqamli imidjini oshirishga doir amaliy taklif hamda tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 3-16-21-3689-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi mamlakatimiz yoshlarining ongi va hayotida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarining oldini olishda ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanish, ijobiy ta’sir ko‘rsatishida mediata’limning o‘rni va samaradorligi oshishiga erishilgan;

“Submadaniyatlar targ‘iboti” davrida shaxs dunyoqarashini boshqarishda vayronkor g‘oyalardan ijtimoiy tarmoqlar ko‘magida o‘z maqsadlarini amalga oshirishda jamiyatda o‘rnatilgan erkin diniy munosabatlardan qo‘shirnoq ichida “oqilona g‘oyalar”ni singdirishda mafkuraviy qurol sifatida foydalanuvchi guruhlar faoliyati ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, ma’naviy va mafkuraviy jihatlati dealiktik kuzatuvlarga ko‘ra ilmiy dalillangan xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo‘linma va harbiy ta’lim muassasalarida “Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyati”, “Harbiy psixologiya”, “Harbiy pedagogika” kabi fanlarni nazariy-metodologik jixatdan boyitishda, “Ma’naviy-ma’rifiy tayorgarlik” mashg‘uloti, “Ma’naviyat soati”, davra suhbatlari, ijodiy tanlovlar, kitoblar mutaolasi, tarixiy-madaniy maskanlarga tashriflar kabi tadbirlarni o‘tkazishda keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 10/2104-son ma’lumotnomasi). Dissertatsiya ichida bildirib o‘tilgan takliflar va tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiya bo‘yicha harbiy xizmatchilar hamda o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik, mardlik, jasurlik va fidoyilik, milliy istiqlool goyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, vazirlik tizimidagi barcha harbiy qism va muassasalarda foydalanildi hamda bular o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda;

shaxs dunyoqarashini rivojlantirishda axbarot makonida manipulyativ harakterga ega fake (yolg‘on xabar) xabarlardan jamoatchilik ongi va tafakkurini himoyalash mexanizmi sifatida “Raqamli dunyoqarash” funksiyasini shakllantirishga oid “Maxsus tashkillangan yashirin ta’sir; tasavvurlarni sxemalashtirish; xulq-atvorni dasturlashtirish hamda manipulyativ ta’sirga uchragan obyekt xatti-harakatlarining ehtimoliy natijalarini oldindan taxmin qilish kabi xalqaro ilmiy-nazariy tajribalar yordamida yoritib berilgan xulosa va takliflardan ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasidagi o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlari (konferensiya, davra suhbatlari, seminar va uchrashuvlar)da foydalanilgan. Xususan, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanali DMning “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” dasturlar ssenariysida (2023-2024-yillarda) foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Muallif tomonidan 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy nashrlarda, 7 tasi respublika nashrlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 135 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Globallashuv sharoitida shaxs dunyoqarashiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “globallashuv”, “ijtimoiy tarmoqlar” tushunchasi tarixiy va ilmiy jihatdan tahlil etilgan, “globallashuv” tushunchasi, uning tuzilishi va ijtimoiy tarmoqlarning shaxs dunyoqarashi shakllanishiga ta'siri, madaniyat, mafkura va mafkuraviy tahdidlar o'rtasidagi o'zaro munosabatning nazariy jihatlari ochib berilgan.

Globallashuv ta'sirida nafaqat taraqqiy topgan, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar ham rivojlanib bormoqda. Bundan tashqari, taraqqiy topgan mamlakatlar tomonidan shakllantirilayotgan “ommaviy ma'naviyat”ning globallashuvi ta'sirida milliy ma'naviyatlarning zaiflashuvi, insonlar axloqi, dunyoqarashi va mentalitetida ham salbiy holatlarning yuzaga kelayotganligi bugun realikka aylandi. Ularga asoslanib, aytish mumkinki, globallashuv moddiy borliqqa aylandi va u taraqqiyotga yoki aksincha, inqirozga o'zining ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Globallashuv nafaqat jarayon, shuningdek, u moddiy kuch hamdir. Ana shu jihatlarni hisobga olgan holda, uning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish, inqirozga olib keladigan ta'sirlaridan himoyalani, mexanizmlarini izlab topish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'li bilan barqaror taraqqiyotga erishishni ilmiy asoslash tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tahdid tushunchasi jamiyat, iqtisodiyot va siyosatga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf-xavflarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Tahdidlar tashqi yoki ichki bo'lishi mumkin hamda ularning tabiati tabiiy ofatlardan kiber tahdidlarga qadar bo'lishi mumkin.

Globallashuv sharoitida “Ommaviy madaniyat” asosan zamonamiz vakillarining yangi-yangi “moda”lari asosida boyib boradi. Go'yoki kim o'sha “moda”ga amal qilsa, u madaniyatli deb topiladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, “ommaviy madaniyat” bu – ommaviy “moda” niyat, ya'ni yangicha modani niyat qilish, kimgadir taqlid qilish, unga erishish va uni ommaviylashtirish demakdir.

“Globallashuv – barcha sohani, ya'ni falsafiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy boshqa sohalarni qamrab oladigan ko'p o'lchovli harakat. Bu milliy chegaralar

ahamiyatsiz bo‘lib qoladigan yagona dunyo makonining shakllanishiga olib keladi. Globallashuv xalqaro savdoning o‘shishiga, texnologiyalar va madaniy qadriyatlar almashinuviga, shuningdek, migratsiya oqimining ko‘payishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bu daromadlar tengsizligi, madaniy o‘ziga xoslikni yo‘qotish va eksteritorial xatarlar kabi oqibatlarini to‘g‘risida tortishuvlarni keltirib chiqaradi¹.

Globallashuvning asosiy jihatlari:

iqtisodiy jihatdan milliy iqtisodiyotlarning global iqtisodiy tizimga qo‘shilishi, bu xalqaro savdo va investitsiyalarning ko‘payishiga, xalqaro savdo to‘siqlarining pasayishi va logistika tarmoqlarining rivojlanishi hisobiga mamlakatlar o‘rtasidagi savdo hajmining rivojlanishiga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ortishi va transmilliy korporatsiyalarni yaratishga, jahon moliya bozorlarining shakllanishi va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning o‘shishiga olib keladi;

madaniy jihatdan dunyo bo‘ylab madaniy mahsulotlar va qadriyatlarining tarqalishiga olib keladigan madaniyatlarining o‘zaro ta’siri ortishiga, mamlakatlar o‘rtasida madaniy mahsulotlar (kino, musiqa, adabiyot) va g‘oyalarni sochishga, migratsiya va madaniy qadriyatlar hamda urf-odatlar, almashinuvi tufayli davlatlar va shaharlarda madaniy xilma-xillikning o‘shishiga, zarur brendlar va iste’molchilar standartlarini ommalashtirishga yordam qiladi;

texnologik jihatdan tezkor aloqa va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan innovatsiyon-texnologiyalarning tez tarqalishiga, axborot almashinuvini tezlashtiradigan va aloqani ta’minlaydigan, shuningdek, internet va raqamli texnologiyalarning yoyilishiga, dunyo bo‘ylab texnologik va ilmiy yutuqlarning tez tarqalishiga, transport infratuzilmasi va aloqa vositalarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi;

ijtimoiy jihatdan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va jahon muammolarini hal qilish uchun global institutlarni yaratish global muammolarni hal qilishga qaratilgan xalqaro tashkilotlar hamda bitimlar sonining ko‘payishiga, Birlashgan Millatlar tashkiloti, JST, Jahon banki kabi institutlarning takomillashuviga, davlatlararo hamkorlik va ittifoqlarni mustahkamlashga xizmat qiladi;

ijtimoiy jihatdan migratsiya oqimining ko‘payishiga, bu mamlakatlarda madaniyatlar va etnik xilma-xillikning aralashishiga, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga ta’sir ko‘rsatadigan tug‘ilish, o‘lim va migratsiyadagi farqlar tufayli demografik tuzilmalarni o‘zgartirishga olib keladi;

global ta’lim jihatdan ko‘plab mamlakatlarda tan olingan ta’lim standartlari va dasturlarini tarqatish talabalar hamda o‘qituvchilarning harakatchanligini oshirishga, onlayn kurslar va ta’lim platformalarining keng tarqalishiga, butun dunyo bo‘ylab odamlar uchun ta’limni yanada qulayroq qilishga yordam beradi.²

“Globallashuv” tushunchasi amerikalik olim T.Livittin tomonidan 1983-yilda “Garvard biznes revyu”³ jurnalida e’lon qilingan maqolada qo‘llanilgan. U bu tushunchani qo‘llash orqali jahon, xususan, taraqqiy topgan mamlakatlarda iqtisodiy sohada yuzaga kelgan o‘zgarishlarni, ularda transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi va ularning o‘zaro birlashib bozorlarni egallashi, shu tariqa yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlarni ko‘rsatish maqsadida qo‘llagan. Bu davrda Yevropaning bir qator mamlakatlari va AQSHda

¹ Отамуратов С. Глобализация и миллат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008,

² Муаллифнинг мавзуга оид кенг қамровли манбаларни ўрганиш орқали ишлаб чиққан талқинлари.

³ Мировая экономика и международные отношения. – М., 1988. – № 1. – С. 13.

iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sodir bo'ldi hamda ularning jahon iqtisodiyotida yetakchiligi ta'minlandi. Eng asosiysi, ular jahon bozorida yagona kuch sifatida mustahkam o'rin egallashga muvaffaq bo'lgan edilar.

Bu jarayonning avj olishi uni ilmiy jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqishni ham orttirib yubordi. Bu jarayonni birinchilardan bo'lib Roland Robertson 1985-yildan boshlab ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rgana boshladi¹. Roland Robertson globallasuvga taraqqiyotning ma'lum bosqichi, uning tobora rivojlanishi jahonda bir butunlikka olib keluvchi omil sifatida qaradi. Uning bu jarayonni o'rganishdagi xizmati shunda bo'ldiki, u globallasuvni taraqqiyotni tezlashuviga, iqtisodiyotning markazlashuviga va yutuqlarning ommaviylashuviga olib keluvchi omil ekanligini, shuning uchun uni ilmiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish hamda uning imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini anglab yetdi.

“Tahdid” tushunchasi inson faoliyatining turli sohalarida, jumladan, xavfsizlik, siyosat, iqtisodiyot va ekologiyada muhim rol o'ynaydi. Bu shaxsga, jamiyatga yoki davlatga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xavfni aks ettiradi. Tahdidlarning ma'nosi va mohiyatini tushunish mumkin bo'lgan xatarlarga yaxshiroq tayorgarlik ko'rish hamda ularning oqibatlarini oldini olish va yumshatish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Jamiyatda axborot, ham bilim manbai ham eng asosiy muloqot vositasi bo'lib hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirishda radio, televideniya, ommaviy-axborot vositalari va Internet tizimining ahamiyati juda yuqoridir. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Har bir inson ob-havo prognozini, transport vositalari qatnovi jadvalini, bank va biznes ma'lumotlarini hamda kundalik yangiliklardan habardor bo'lishga muxtojdir. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lmas ekan u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrar. Aytish joizki, internetning axborot maydoni kun sayin kengayib, axborot manbalari tez-tez yangilanib turadi. Bu esa, o'z navbatida, taraqqiy etishimizda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Internet ijtimoiy munosabatlar tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham bu tizimni boshqarish masalasi rivojlangan davlatlarning asosiy maqsad va vazifalari hisoblangan. XX asrning 90-yillari oxiridan boshlab internetning ijtimoiy boshqaruv tamoyillari nuqtayi nazardan o'rgangan bir qator ixtisoslashgan tadqiqot institutlari va tashkilotlari ish boshlagan. Bular orasida Oksford Universitetidagi Internet tadqiqotlar instituti (Oksford Internet instituti), Stenford universiteti Internet va jamiyat markazi, Berkman Harvard Universitetidagi Berkman Internet va jamiyat markazi hamda Sirakuz Universitetidagi Internet boshqaruv loyihasi instituti alohida o'rinni egallaydi².

Internet – bu internet texnologiyasi, dastur ta'minoti va qaydnomalari asosida tashkil etilgan hamda ma'lumotlar bazasi va elektron hujjatlar bilan kollektiv ravishda ishlash imkonini beruvchi davlat hamda jamiyat miqyosida yangi ijtimoiy boshqaruv muhitini tashkil etuvchi global tarmoqdir. Bunday boshqaruv jarayonida davlat birlashtiruvchi funksiyani bajaradi. Jamiyatning har xil subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning onlayn sxemasi davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruv tizimidagi o'zaro sheriklik asosida amalga oshadi. Shu jihatdan Manuel' Kastel'sning fikrlari diqqatga sazovor: “Axborotlashgan jamiyatda, – deb yozadi u, –

¹ [http \(www.word.widewar\)](http://www.word.widewar)


² www.oii.ox.ac.uk[httpV/cvberlaw^tanfordiCdnhttp://cvbeT.law.harvard.eduwww.igp.org^](http://cvberlaw.tanfordiCdnhttp://cvbeT.law.harvard.edu/www.igp.org)

hokimiyat fundamental pogʻonada madaniy kodlarga kirib boradi. Odamlar va institutlar esa ular orqali hayotni tasavvur etadi hamda tegishli qarorlar qabul qiladi. Shu maʼnoda, hokimiyat, u real boʻlganda, nomoddiy boʻladi”¹.

Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlari eʼtiborga molik: “Albatta, bu haqda koʻp gapirish mumkin, lekin ana shu miqdor koʻrsatkichlarini sifat koʻrsatkichlariga aylantirish, shu asosda ommaviy axborot vositalarini haqiqiy toʻrtinchi hokimiyat boʻlib maydonga chiqishiga erishish, milliy media maydonimizda fikrlar va qarashlar rang-barangligini taʼminlash bugungi kunda dolzarb vazifa boʻlib qolayotganini barchamiz yaxshi tushunamiz”². Shu oʻrinda axborotning kommunikativ tizimning jamiyat hayotidagi oʻrni tobora salmoqli bosimga ega boʻlib borayotganligini nazarda tutmoq kerak.

Oliy Majlis Senatida 2022-yil 31-yanvar kuni “Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni taʼminlash masalalari qoʻmitasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi. Bu haqda Senat axborot xizmati xabar qildi. Unda qayd etilishicha, majlisda senatorlar, qoʻmita ekspertlari, doimiy komissiyalar raislari, Yoshlar parlamenti aʼzolari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan. Yigʻilishda butunjahon internet tarmogʻida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament soʻrovi yuborish toʻgʻrisidagi masala dastlabki tarzda muhokama etilgan.

Statistik maʼlumotlarga koʻra,



Oʻzbekistonlik foydalanuvchi mavjud boʻlib, ularning koʻpchiligini yoshlar tashkil qiladi.

Milliy manfaatlarimizga rahna solishga, maʼnaviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni boʻlgan tarixiy xotiramizni buzishga, yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga qarshi doimo ogoh turishimiz kerak.

Demak natijalardan koʻrishimiz mumkinki, koʻpchilik foydalanuvchilar yangiliklardan boxabar boʻlish maqsadida foydalanar ekan.

“Ijtimoiy tarmoqlarning oila va jamiyat barqarorligiga solayotgan eng katta taxdidlaridan yana biri – ulardagi muloqotlar sababli koʻplab tinch-totuv oilalar barbod boʻlib ketayotganidir”³.

Shuningdek, ushbu bobda shaxs axborot madaniyatining mazmun-mohiyati, uning shakllanishi va rivojlanishiga taʼsir koʻrsatuvchi omillar tahlil qilingan. Unda

¹ Кастелс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М.: ВЦИОМ, 2000. – С. 502-508.

² Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-jild. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. – 500 b.

³ Mansurov A. “Globallashuv va axborot jamiyatida shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy tarmoqlarning taʼsiri va oʻzlikni anglash masalalari”. Fals. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoreferati. – T., 18-23 b.

hozirgi davrning xarakterli xususiyatlaridan biri shiddat bilan kengayib borayotgan globallashuv jarayonida ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotning yalpi axborotlashuvdan iboratligi, globallashuv va axborotlashuv bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan dialektik birlikdagi ijtimoiy voqelik ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Shaxs dunyoqarashi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlangan bo'lib, unda shaxs axborot madaniyati va uning evolyutsiyasi, shaxs ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiluvchi axborotlarni oldini olishga oid xalqaro ijtimoiy-huquqiy tajriba yoshlarda axborot madaniyatni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimining roli ilmiy, ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilingan.

Mazkur bobda globallashuv sharoitidagi axborot tizimi va shaxs axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni orasidagi o'zaro bog'liqlikning ilmiy ijtimoiy jihatlari tadqiq qilingan. Jamiyatni demokratlashtirish davrida axborotlar tizimini mustaqil ijtimoiy voqelik sifatida ilmiy asosda tahlil qilish, ijtimoiy va madaniy jarayonlardagi demokratik o'zgarishlar bilan aloqadorligi, shaxsning ijtimoiy hayotidagi faoliyatida axborot madaniyatning o'rni o'rganilgan.

Hozirgi raqamli texnologiyalar asrida ijtimoiy media bugungi hayotimizning ajralmas qismiga aylandi, bu bizning muloqot qilish, o'zaro aloqa va ma'lumot almashish usullarini yanada rivojlantiradi. Biroq ijtimoiy media o'zining ko'plab afzalliklari bilan bir qatorda, ayniqsa, salbiy ta'sir qilish nuqtayi nazaridan ham xavf tug'diradi. Salbiy ijtimoiy media ta'siri ijtimoiy media platformalarida jismoniy shaxslar yoki tashkilotlar haqida zararli ma'lumotlarni tarqatishni anglatadi. Bu turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan kiberhujum, onlayn ta'qiblar, tuhmat va yolg'on ma'lumotlarning tarqalishi.

Salbiy ijtimoiy media ta'siri chuqur bo'lishi mumkin, bu odamlarning ruhiy salomatligi, obro'si va shaxsiy munosabatlariga ta'sir qiladi. Tashkilotlar uchun ijtimoiy medianing salbiy ta'siri brend obro'siga putur yetkazishi, mijozlarning yo'qolishiga olib kelishi va hatto moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sir qilishi mumkin. Axborot tez tarqaladigan va bir necha soniya ichida global auditoriyaga yetib borishi mumkin bo'lgan bugungi o'zaro bog'langan dunyoda ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirining oldini olish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Ommaviy axborot vositalari zamonaviy jamiyatda doimiy va tobora muhim rol o'ynab, shaxsning ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirishga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ular dunyo voqealari haqidagi asosiy ma'lumot manbai, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarni muhokama qilish va tahlil qilish uchun asosiy kanaldir. Ushbu hujjat ommaviy axborot vositalarining e'tiqodni shakllantirishga, atrofdagi voqelikni idrok etishga va shaxsiy ijtimoiy dunyoqarashga ta'siri rolini o'rganadi. Ommaviy targ'ibotni shakllantirish, ongni manipulyatsiya qilish va imtiyozlarga ta'sir qilish kabi ushbu ta'sirning asosiy mexanizmlari zamonaviy dunyoda ommaviy axborot vositalarining madaniyat va demokratik jarayonlarga qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tushunish uchun tahlil qilinadi"¹.

Ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini aks ettiruvchi amaliy tadqiqotlar:

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi fuqarolik huquqlari harakati: ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va fuqarolik huquqlari harakatini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynadi. Selma-Montgomeri yurishlari kabi

¹ Nishonov K. "Globallashuv sharoitida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining falsafiy asoslari". Fals. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoreferati. – T., 16-28 b.

voqealarni televideniye orqali yoritish afro-amerikaliklar duch kelgan adolatsizliklarni milliy auditoriyaga yetkazishga yordam berdi, bu esa fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini ko'proq qo'llab-quvvatlashga olib keldi.

Arab bahori: Ijtimoiy media arab bahori qo'zg'olonlarida muhim rol o'ynadi, Twitter va Facebook kabi platformalar norozilik namoyishlarini uyushtirish hamda ma'lumot almashish uchun ishlatilgan. Ushbu voqealarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi qo'zg'olonlar va ularning mintaqada ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatlari haqidagi global tasavvurni shakllantirishga yordam berdi.

Qora tanlilarning hayoti muhim harakati: Qora tanlilarning hayoti muhim harakati ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan bo'lib, irqiy adolat va politsiya zo'ravonligi masalalari bo'yicha jamoatchilik fikri hamda nutqiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalarida yoritish faollar ovozini kuchaytirishga va jamiyatdagi tizimli irqchilikka e'tibor qaratishga yordam berdi¹.

Media mazmunini tahlil qilish uchun tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish strategiyalari:

shaxslarni media-kontent manbalariga shubha qilish hamda ijodkorlarning ishonchliligi va motivlarini hisobga olishga undash;

jismoniy shaxslarga media-kontentda taqdim etilgan dalillarni baholashga yordam bering va bu da'volarni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli yoki yo'qligini ko'rib chiqadi;

shaxslarni media-kontent taqdim etiladigan kontekstni, jumladan, vaqt, joylashuv va fon ma'lumotlarini ko'rib chiqadi;

muvozanatli ko'rinishga ega bo'lish va potensial noto'g'ri yoki nomuvofiqliklarni aniqlash uchun odamlarni bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirishga undash;

shaxslarni ma'lumotni haqiqat deb qabul qilishdan oldin uning to'g'riligini tekshirish uchun ishonchli manbalardan foydalangan holda faktlarni tekshirishga o'rgatish zarur;

odamlarga kadrlar yaratish, sensatsiya va hissiy joziba kabi ommaviy axborot vositalarining usullarini tushunishga yordam berishi hamda bu usullar idrokga qanday ta'sir qilishi tushintirish kerak;


savollar berish, qo'shimcha ma'lumot izlash va turli nuqtayi nazarlarni hisobga olish orqali shaxslarni media kontenti bilan faol ishtirok etishga undash².

Ushbu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali shaxslar media-kontentning yanada oqilona iste'molchilariga aylanishlari va murakkab media landshaftini yaxshiroq boshqarishlari mumkin.


Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishga qanday ta'sir qilishini tushuntirishga yordam beradigan ikkita asosiy nazariya – bu ijtimoiy o'ziga xoslik nazariyasi va ijtimoiy kognitiv nazariyalar hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan 1526 ta respondent bilan o'tkazilgan so'rovnomada "Siz bugungi kunda qaysi ijtimoiy tarmoqlarda faolsiz?" degan savolga quyidagicha javob berishda:

¹ Ms.Quail D. Makquailning ommaviy kommunikatsiya nazariyasi (6-nashr). Sage nashrlari, 2010.

² Stroud N.J. (2008). Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va siyosiy moyilliklar: tanlangan ta'sir qilish kontsepsiyasini qayta ko'rib chiqish // Siyosiy xatti-harakatlar. – № 30 (3). – B. 341-366 // <https://doi.org/10.1007/s11109-008-9051-6>



Natijadan ko‘rinib turibdiki, respondentlar hozirda eng ko‘p telegram messenjeridan foydalanar ekan. Bundan tashqari, respondentlarga “Siz haftasiga taxminan necha soatni ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazasiz?” degan savolga quyidagicha javoblar olingan:¹




Demak, natijalardan ko‘rishimiz mumkinki, ko‘pchilik foydalanuvchilar yangiliklardan boxabar bo‘lish maqsadida foydalanar ekan.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ijtimoiy tarmoqlar shaxs dunyoqarashiga kuchli ta‘sir ko‘rsatayotganligini inobatga olib mualliflik tushunchasi ishlab chiqdik hamda bunga quyidagicha ta‘rif berdik, “Raqamli dunyoqarash – bu shaxsning globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanadigan, raqamli axborot muhiti, madaniyatlararo muloqot va virtual munosabatlar natijasida paydo bo‘ladigan, zamonaviy dunyoqarashning o‘ziga xos turi”. “Raqamli dunyoqarash” yangi tushunchasi orqali shaxsning global madaniyat, turli ijtimoiy tendensiyalar va yangiliklarni qabul qilish hamda ularga moslashish jarayoni aks ettiriladi. Raqamli dunyoqarashning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari, filtr pufagi va virtual do‘stlik fenomenlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yoshlarning raqamli dunyoqarashi shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning roli sezilarli ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, raqamli dunyoqarash jarayonida yoshlarning milliy qadriyat va madaniyatlarga bo‘lgan e‘tiborini saqlab qolish zarurati ta‘kidlandi. Kelajakda raqamli dunyoqarashning yoshlar psixologiyasi va ijtimoiy o‘zgarishlarga uzoq muddatli ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

Internetning keng rivojlanishi o‘z-o‘zidan o‘smir yoshlar uchun xavf-xatarni ham keltirib chiqaradi. Internetda yoshlar ota-onalarining hech qanday kuzatuvlarisiz har qanday ma‘lumotga ega bo‘lishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar ijobiy ta‘sirdan ko‘ra salbiy ta‘sirning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Xalqaro tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalarning 20 %i virtual aloqada jinsiy aloqada bo‘lishga taklif olishgan. 11 %i esa bunday narsaga bir necha marotaba dush kelishgan. Shuningdek, bolalarning 14,5 %i Internet orqali notanish kimsalar bilan ushrashuv belgilashgan, 10 %i ushbu ushrashuvlarga bir o‘zlari borishgan, 7 %i esa notanish kimsalar bilan

¹ 1- va 2-ilovada ko‘rsatilgan.

ushrashishlari haqida hech kimni ogohlantirmaganlar¹. Bu kabi holatni pasdagi diagrammada ham ko‘rishingiz mumkin.



Ushbu jarayonlar Internet orqali kechayotgan salbiy jarayonlarning bolalar va yoshlar ongiga tezlik bilan singib borayotganidan dalolat bermoqda.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish zaruriyati jamiyat hamda davlatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash, axborot sohasini liberallashtirish hamda so‘z va axborot erkinligini ta‘minlash jarayonlariga kuchli ijobiy turtki berdi. Bu borada yurtimizda yangi rivojlanish bosqichida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ammo shu bilan birga, bu boradagi kamchiliklar ham ko‘zga tashlanmoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Bizning navbatdagi kechiktirib bo‘lmaydigan va istiqboldagi vazifamiz – “Elektron hukumat” tizimi samarali ishlashini ta‘minlashdan iborat. Hozircha u to‘liq hajmda ishlamayapti. Ayrim idoralar esa bu tizimga yoki ulanmagan, yoki ochiq aytadigan bo‘lsak, uni nima qilishni ham bilmaydi”.

Axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga jamiyatda zararli ijtimoiy fikrni shakllantirish, qo‘rquv, vahima tarqatish orqali g‘oyaviy parokandachilikni keltirib chiqarishdek zararli maqsadlar ko‘zda tutiladi. Ana shunday sharoitda axborot xafsizligini ta‘minlash va uni faol kurashchanlik sifatlarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu masala dunyo siyosati va madaniyati rivojining ustuvor yo‘llaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Axborot tizimi sohasida ustuvorlikka erishish milliy xafsizlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashning asosiy shakllardan biri deb hisoblanadi.

“Prezident Sh.Mirziyoyev mamlakatda 2022-yilga kelib ommaviy axborot vositalari soni 2016-yilga nisbatan qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetganini ta‘kidlab, ayniqsa, xususiy media vositalari jamiyatda fikrlar xilma-xilligini ta‘minlashda, tub islohotlarni amalga oshirishda, joylarda yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik va muammolarni dadil ko‘tarib chiqishda muhim omil bo‘layotganini e‘tirof etdi. Ulardan 686 tasi gazeta, 300 tasi jurnal, 16 tasi axborotnoma-byulleten, 4 tasi axborot agentligi, 65 tasi televideniya, 31 tasi radio, 359 tasi veb-saytlardir. Ta‘kidlash lozimki, 1991-yildagiga nisbatan 3,5 baravarga, ya‘ni 395 tadan 1461 taga ko‘paygan bo‘lsa, gazetalar soni 2,5 baravarga, jurnallar soni esa 6 baravarga o‘sganini qayd etish mumkin. Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalari soni davlat-nodavlat ko‘rinishidagi taqsimotga ajratilganda, davlat tashkilotlari tasarrufidagi bosma va elektron nashrlar jami, 539 ta (46.2 %) nodavlat tashkilotlar va xususiy sektorga tegishli ommaviy axborot vositalari 922 taga tengdir. Davriy nashrlar monitoringi ularning nafaqat son, balki ixtisoslashuvi, mazmuni, hajmi va matbaa sifati jihatidan ham rivojlanib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, mavjud davriy nashrlarning 220 taga yaqini ijtimoiy-siyosiy, 130 tadan ortig‘i ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy-ma‘rifiy, 200 tadan ortig‘i adabiy-badiiy, axborot-

¹ Аналитический доклад “Центра экономических исследований. Эффективная коммуникация и развития”. – Т., 2015. –С. 21.

ko'ngilochar, 80 taga yaqini ilmiy-tahliliy, 70 tadan ortig'i yoshlar, bolalar va o'smirlar va 20 taga yaqini esa sport yo'nalishlariga ixtisoslashgan"¹.

“Shaxs dunyoqarashi va axborot madaniyati shakllanishida tezkor axborotlar, dunyoda ro'y berayotgan yangiliklarning bir vaqtning o'zida bir necha tilda va terrorchi ekstremistlar manfaatlariga xizmat qiladigan yo'nalishda targ'ib qilinishi mafkuraviy hamda ijtimoiy-siyosiy tahdidlarni kuchaytiradi. Bunday saytlar bir tomondan, terrorchilik tashkilotining faol a'zolarini “milliy qahramon”, “vatanparvar” sifatida “ulug'lab”, ularni qo'poruvchilik kabi yovuz ishlarini yana ham jonlantirishga qaratilgan. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy voqealar haqida yolg'on va bo'xtonlarga to'lib toshgan bunday saytlar, eng avvalo, hali dunyoqarashi shakllanib ulgurmagani g'o'r yoshlarga, shuningdek, terrorchilarning asl maqsad va muddaolarini bilmaydigan, soxta dabdabali shiorlarga moyil odamlarga mo'ljallangan”².

Globalashuv xalqaro xususiyatga ega jarayondir, shuningdek, axborotlashuv ham xalqaro munosabatlar va manfaatlar bilan uzviy bog'liq. Jahonda yuz berayotgan bunday jiddiy o'zgarishlar jarayonida axborotlashtirishni ta'minlash zaruriyati har bir davlatdan xalqaro huquq va qoidalarga amal qilishni talab qiladi. Bular har bir davlat o'zining o'z milliy manfaatlarining ustuvorligini saqlab qolgan holda mintaqaviy va xalqaro manfaatlar bilan uyg'unlikda hamkorlik olib borish o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu zaruriyat, o'z navbatida, davlatlardan xalqaro miqyosidagi axborot almashishi sohasida o'zaro ishonch va hurmat tamoyillariga asoslangan tashqi siyosat olib borishni talab qiladi. Shu o'rinda, xalqaro munosabatlarda, shuningdek axborot almashinuvida o'rinsiz g'oyaviy muholiflikka yo'l qo'ymaslik g'oyat muhimdir. “Davlatlararo munosabatlar sohasida yagona g'oyaga amal qilishi lozim. Birgalikda tinch hayot kechirish, hamkorlikka intilish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, turli nuqtayi nazar va fikrlarga bardoshli bo'lish tamoyillarini o'zida aks ettirgan qonunlar ustvorlik kasb etishi darkor”³.

Tadqiqot natijalari tasdiqlaydiki ishlab chiqarish hajmini ikki baravar ko'paytirish uchun axborot miqdorining to'rt martaga o'sishi zarur ekan, sanoat mahsulotini o'n marotaba oshirish uchun yuz martadan ko'proq axborotlar turi talab qilinadi. Shuning uchun ham globalashuv sharoitida axborot inson faoliyatining eng qimmatli va muhim maxsulotiga aylanib qoldi. Shuning uchun ham XXI asrni axborot asri deb nomlanayotgani bejiz emas, sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik va o'rta biznes, transport, savdo, siyosat, fan, ma'orif va solig'ni saqlash tizimini axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun yer qurrashining aholisi axborotni tuzish, qayta ishlash saqlash va tarqatish bo'yicha malakaga ega bo'lish lozim.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar xavfsizligini ta'minlashning muammo va yechimlari”** deb nomlanib, mazkur bobda tahdidlariga qarshi kurashda axborot xavfsizligini ta'minlashning ma'naviy-g'oyaviy jihatlari hamda “ommaviy madaniyat” tahdidlariga qarshi kurashishda

¹ “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”da axborot sohasini icloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash yuzasidan belgilab berilgan vazifalar hamda sohada mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar haqidagi matbuot anjumani. 2016yil 1-iyun // www.api.uz.

² Shermuxamedov S., Ochildiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Farg'ona, 2000. – B. 40.

³ Karimov I.A. O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillari. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – B. 67.

yoshlarda media madaniyat va media ta'limni shakllantirishning samarali yo'llari, usullari hamda vositalari ilmiy-nazariy va prakseologik jihatdan tahlil qilinadi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali tarqalayotgan axborotlar insonlarning, ayniqsa, yoshlar qatlamini yanada "zamonaviy" bo'lish ruhiyati bilan tengdoshlariga taqlid qilishga yetakladi.

Internet tarmog'i orqali tarqalayotgan materiallar turli shakllarda bo'lib, ular, asosan, matnli, audio va video ko'rinishlarda keng tarqalmoqda. Jumladan, Youtube videoxostingi orqali har daqiqada turli mavzularga oid 300 soatlik videoroliklar joylanadi hamda Internet tarmog'ida mavjud materiallarning 2,37 %i behayolikni targ'ib qiluvchi videolardir.

Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekistonda internet tarmog'idan foydalanuvchilar 20 mln.dan ortiq bo'lib, shundan 80 %i mobil internetdan foydalanadi. Respublikada Facebook ijtimoiy tarmog'i foydalanuvchilari soni 500 mingdan ortiq va ularning 300 mingini erkaklar, 200 mingini ayollar tashkil qiladi. Odnoklassniki ijtimoiy tarmog'idan foydalanuvchilarning o'rtacha oylik soni bo'yicha O'zbekiston 3 o'rinni egallagan, ularning soni 2 mln.dan ortiq hisoblanadi. Shuningdek, mazkur foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqda o'rtacha 41 minut vaqt sarflashadi. Shu bilan birga, ushbu tarmoqda videolarni tomosha qilish soni sutkasiga 350 mln.ni tashkil etadi va ushbu sonning 2 mln.ga yaqini O'zbekistonga to'g'ri keladi.

Bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning tizimligini, muntazamliligini uning samarali ta'minlashda muhim o'rin tutuvchi fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, OAVning faoliyatini mazkur jarayonlarga mos holda rivojlantirib borishdir. Ushbu institut faoliyatini zamon talablari asosida isloh qilishning muhimligiga, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek, "O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq hamda izchil choralarni amalga oshirishdir".

Bugun inson ongini programmashtirish, axborot ekspansiyasi, madaniy gegemonlik, madaniy imperializm kabi iboralar qo'llanilmoqda. Unda yangi madaniy tamoyillarga ko'r-ko'rona ergashish, hukmron madaniy axloqqa bo'ysunish kabi hodisalar kuzatilmoqda. Ushbu jarayon nafaqat kattalar, hatto bolalar psixologiyasiga ham ta'sir qiladi. Bolalar shuurini egallash qurollaridan biri Internet tarmog'i hisoblanib, u boshqa vositalarga qaraganda yetakchilik qilmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli hamda to'liq yechilgani yo'q. Bu o'rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit hamda shart-sharoit yaratish haqida bormoqda. Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va ayniqsa, Internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur"¹.


¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 45-47.

Bugungi kunda internet tarmog'ida foydali ma'lumotlar bilan bir qatorda tarqatilayotgan buzg'unchi (diniy ekstremizm, terrorizm, shafqatsizlik, konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi qaratilgan) va axloq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan axborotlar, ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu g'arazli axborotlardan internet foydalanuvchilarini himoya qilish borasida Respublikamizda bir qator qonunlar va qarorlar qabul qilinmoqda.

Har qanday g'oyaviy immunitetning kuchi uning tushunilganligidadir. Agar shaxs o'z g'oyasining tub ma'nosini tushunib yetsa, uni mantiqan isbotlay olsa va har qanday savolga asoslangan javoblar topa bilsa, bunday odam o'z e'tiqodini va o'z xalqini, himoya qila oladi hamda yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaydi.

Yuqoridagi fikrlarni aniqlashtirish va xulosalar chiqarish maqsadida o'tkazilgan so'rovnomada "Ijtimoiy tarmoqlardan olgan ma'lumotlaringiz real hayotingizdagi qarorlaringizga ta'sir ko'rsatadimi?" degan savol respondentlar quyidagicha javob berishdi¹:



Shuningdek, bu borada Davlat dasturida ham ayrim ishlarni amalga oshirish belgilangan. Xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi 2020-yil 2-mart kungi 5953-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilingan. Ushbu Davlat dasturi ilovasining Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar (5.1.) bo'limi 243-bandi (2020-2023-yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyani ishlab chiqish) bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur bandeda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi qabul qilish nazarda tutilgan bo'lib, loyiha bilan 2020-2023-yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya tasdiqlanishi nazarda tutilgan².

Unga ko'ra, ushbu strategiyada milliy kibermakonda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tartibga solish va Kiberxavfsizlikning yagona tizimi hamda muhim hisoblangan infratuzilmani kiberhujumlardan himoya qilish sohasidagi huquqiy bazani shakllantirish hamda mamlakatda kiberxavfsizlik borasida amalga oshirilayotgan choralarni kuchaytirish nazarda tutilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasining bir qator qonun hujjatlarida fuqarolarni nomaqbul axborotlardan himoyalashga qaratilgan qat'iy talablar mustahkamlab qo'yilgan. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega ekanligi, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot hamda qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno ekanligi belgilab qo'yilgan³.


¹ 1- va 2-ilovada to'liq ko'rsatilgan.

² Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 45-47.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 8.

Axborot texnologiyalari jamiyatda kengayib, chuqurlashib borishi, intensiv rivojlanishi natijasida odamlarning turmush tarzi o'zgarib bormoqda, salbiy voqelikka qarshi, fikrlashi o'zgardi. Buning o'ziga xos xususiyati shaxs informatsion madaniyatining o'zgarib borishidir, mukammalashuvdir. Shaxs informatsion tizimi vositasida informatsion madaniyati shakllanishida asosiy vazifa kompyuter texnologiyalari, internet, aloqa vositalari zimmasiga yuksalgandir. Shaxsning informatsion mazmundagi bilimlarni olishda kompyuter texnologiyasining o'rnini va roli to'g'risidagi mulohazalarni bayon etish, tadqiq qilish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'sak, so'rovdan "Siz uchun axborot manbasining ishonchliligi muhimmi?" degan savolga respondentlar quyidagicha javob berishdi¹:



Natijalarga qaraydigan bo'lsak, "Axborot manbasining ishonchliligi juda muhim" degan javobni ko'pchilik respondentlar berishdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 159-moddasida O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish harakatiga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Shuningdek, pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish harakatlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 189-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 130-moddasida javobgarliklar belgilangan. Bundan tashqari, zo'rvonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tarqatish harakatlari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 189-moddasi 1-bandi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 130-moddasi 1-bandi talablariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shuningdek, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda butunjahon Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentyabrdagi 707-sonli "Butunjahon Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, qarorida quyidagilar taqiqlangan:

"O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etish;

urush, zo'rvonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilish;

davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish;


¹ 1- va 2-ilovada ko'rsatilgan.

milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi, shuningdek fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘yuvchi axborotni tarqatish;

giyovandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ‘ib qilish; pornografiyani targ‘ib qilish kabi holatlar”¹.

Tadqiqotning dolzarbligi tez o‘zgaruvchan axborot makonida kiber xavfsizlik va shaxsiy dunyoqarashni himoyalashga oid kompleks yondashuvni yaratish zarurligi bilan ta’kidlangan. Ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiyaga qarshi kurashning samarali choralari davlat idoralari, ta’lim muassasalari, xususiy sektor va jamoat tashkilotlarining axborot xavfsizligini ta’minlash hamda jamiyatning har bir a’zosining shaxsiy dunyoqarashini himoya qilish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan xulosa qilgan xolda o‘tkazilgan so‘rovnoma “Sizningcha, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxs dunyoqarashini shakllantirishda qanday chora-tadbirlar muhim?” quyidagicha javob berishdi²:



Demak, natijalardan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy tarmoqlar shaxs dunyoqarashiga katta ta’sir qiladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasiga Internet tarmog‘i orqali bo‘layotgan zamonaviy tahdidlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini o‘zgartirishga da’vat etish;

jinoyatchilik, urush, zo‘ravonlik, terrorism, diniy ekstremizm, separatizm vafundamentalizm g‘oyalari targ‘ib qilish;

davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarni, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish;

internet tarmog‘i orqali amalga oshirilayotgan xakerlik hujumlari;

milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi, shuningdek, fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga, obro‘sigga putur yetkazuvchi noxolis axborotlarni tarqatish;

ommaviy madaniyatni targ‘ib qilish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ‘ib qilish;

pornografiyani targ‘ib qilish;

bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklarga sabab bo‘luvchi g‘oyalarni tarqatish;

azart o‘yinlarni targ‘ib qilish;

ijtimoiy tarmoqlarni inson psixologiyasiga ta’siri;


axborot va intellektual mulk obyekti uchun mualliflik huquqlarini buzilishi;

¹ O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni // <https://lex.uz/mobileact/83472>

² 1- va 2-ilovada berilgan.

odam savdosi va boshqalar¹.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda Biz so‘rovnoma “Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborotlar orasida manipulyativ yoki mafkuraviy ta’sir seziladimi?” degan savol bilan murojat qilganimizda respondentlar quyidagicha javob berishdi²:



Natijadan ko‘rinib turibdiki, Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborotlar orasida manipulyativ yoki mafkuraviy ta’siri yuqoriligini.

Natijadan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ma’naviyati va axloqiga ta’sir etuvchi ko‘plab kontentlar mavjudligi.

Shu boisdan ham axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash hamda shu asosda shaxsning informatsion madaniyatini shakllantirish va barkamol shaxs sifatida kamol toptirish mustaqil davlat siyosatida alohida o‘rin egallagan. Shaxsning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborot hamda o‘z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun shaxs informatsion madaniyatini shakllantirish hamda yuksaltirish demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA

“Globallashuv sharoitida shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Globallashuv sharoitida insonning dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlar asosiy rol o‘ynaydi. Ular turli xil ma’lumotlarga olishni ta’minlaydi, ijtimoiy aloqalarni kengaytiradi va o‘zaro ta’sir hamda o‘zini namoyon qilish uchun turli xil platformalar yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli odamlar global munozaralarda ishtirok etishlari, fikrli odamlarni topishlari va bilimlarini boyitishlari mumkin, bu esa kengroq va xilma-xil dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

2. Ijtimoiy tarmoqlar ham xavf tug‘diradi. Ular axborot pufakchalarini yaratishi mumkin, ularda foydalanuvchilar faqat mavjud e’tiqodlarini tasdiqlovchi ma’lumotlarni olishadi. Bu qarashlarning radikallashishiga va ma’lumotni tanqidiy baholash qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Fikr rahbarlarining ta’siri va boshqa foydalanuvchilar bilan doimiy taqqoslash tendensiyasi o‘z-o‘zini hurmat qilish hamda ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlar madaniy qadriyatlar va g‘oyalarni tarqatishga hissa qo‘shadi, bu esa kosmopolit dunyoqarashning rivojlanishiga olib

¹ “Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid coluvchi g‘oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini yaratish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T., 2019. 19-aprel. – B. 176.

² 1- va 2-ilovda to‘liq ko‘rsatilgan.

keladi. Biroq bu madaniy homogenizatsiyaga va o'ziga xos madaniy xususiyatlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

4. Ijtimoiy tarmoqlardan eng samarali foydalanish va ularning salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun tanqidiy fikrlash hamda media savodxonligini rivojlantirish zarur. Bunga ijtimoiy tarmoqlar orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyati, shuningdek, mumkin bo'lgan manipulyatsiyalar va ushbu platformalardan foydalanishning salbiy oqibatlari to'g'risida xabardorlik kiradi.

5. Ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Ular ongli va tanqidiy foydalanilsa, ochiq, ma'lumotli va kosmopolit dunyoqarashni shakllantirishga hissa qo'shishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy dunyoda ijobiy o'zgarishlar vositasiga aylanishi uchun madaniy xilma-xillikni saqlash va bag'rikenglik hamda xilma-xillikni tushunishni saqlash ham muhimdir.

6. Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning inson dunyoqarashini shakllantirishga ta'siri muhim va ko'p o'lchovli. Ijtimoiy tarmoqlar axborotni tarqatishda, ijtimoiy aloqalar va o'zaro ta'sirlarni shakllantirishda, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xoslikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular globallashuv sharoitida yanada kosmopolit dunyoqarashga olib keladigan madaniy qadriyatlar va g'oyalar almashinuvini targ'ib qiladi. Biroq ularning ta'siri ham salbiy bo'lishi mumkin, axborot pufakchalari, manipulyatsiya va madaniy homogenizatsiyani kuchaytiradi.

7. Ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan iloji boricha samarali foydalanish va ularning salbiy tomonlarini minimallashtirish uchun tanqidiy fikrlash hamda media savodxonligini rivojlantirish zarur. Bu odamlarga ma'lumotni tanqidiy baholash, manipulyatsiyadan qochish va yanada obyektiv hamda muvozanatli dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Zamonaviy dunyoda bag'rikenglik va xilma-xillikni tushunishni targ'ib qilish uchun madaniy hamda ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning xilma-xilligini qo'llab-quvvatlash ham muhimdir.

8. Ijtimoiy tarmoqlardagi g'oya mualliflari va ta'sir o'tkazuvchilar o'z izdoshlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ularning qarashlari va afzalliklarini shakllantiradi. Bu dunyoqarashni shakllantirishda ham ijobiy, ham salbiy omil bo'lishi mumkin.

9. Ijtimoiy tarmoqlar o'zini namoyon qilish va shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq boshqa foydalanuvchilar bilan doimiy taqqoslash psixologik muammolarga va o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishiga olib kelishi mumkin.

10. Ma'lumotlarning ko'pligi sharoitida tanqidiy fikrlash va media savodxonligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu foydalanuvchilarga olingan ma'lumotlarni tanqidiy baholash va manipulyatsiyadan qochish imkonini beradi.

Dissertatsiyada keltirilgan tahlil asosida biz quyidagi asosiy tavsiyalarni taklif qilamiz:

1. Internetdagi global axborot tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish uchun chora-tadbirlar dasturini yaratish;

2. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan milliy kontentni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga doimiy ravishda baho berish hamda tahlil o'tkazish;

3. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Kinematografiya agentligi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda Adliya vazirligi birgalikda telekanallarning badiiy kengashlarining maqsad, vazifalarini, majburiyatlari va vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish;

4. O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bilan hamkorlikda mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborot manipulyatsiyasi, Internetda shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi to‘g‘risida tushunchalar berish, zamonaviy axborot muhitiga to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish yuzasidan ommaviy axborot vositalari va blogerlar uchun o‘quv-seminarlar o‘tkazish;

5. Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan materiallar, diniy adovatni qo‘zg‘atuvchi axborot xurujlariga qarshi kurashish borasida monitoring ishlarini yanada kuchaytirish;

6. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan hamkorlikda teleradiokanallar, Internet jahon axborot tarmog‘ida va tashqi reklama vositalarida ijtimoiy axborotlar doirasida milliy kontentlar targ‘ibotini kuchaytirish;

7. “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi bilan hamkorlikda davlat va nodavlat telekanallar tomonidan auditoriyaning xohish-istaklari, axborot manbalariga munosabatini aniqlash maqsadida, ommaviy axborot vositalari orqali foydali kontentlarni tarqatish bo‘yicha fuqarolar fikrlarini aniqlash yuzasidan ijtimoiy so‘rovnomalar tashkil etish;

8. Hamkorlik hamda tajriba almashish, kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va axborot xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha tajriba almashish;

10. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish, kiber tahdidlarni aniqlash va oldini olish uchun zamonaviy ma’lumotlarni himoya qilish texnologiyalari hamda sun‘iy intellektni joriy etish;

11. Xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda “Internet tarmoqlari orqali yoshlar ma’naviy dunyosiga salbiy ta’sir qiluvchi axborotlarni oldini olish to‘g‘risida” qonunni ishlab chiqish;

12. Milliy ijtimoiy tarmoqlarga tajribali pedagoglar, madaniyat va san’at vakillari, yozuvchilar, estrada yulduzlarini jalb qilib, uni ommalashtirish;

13. Internet provayderlar mexanizmining darajasida “qora ro‘yxat”larni shakllantirish, salbiy ma’lumotlardan iborat bo‘lgan veb-saytlarni bloklash;

14. Salbiy ma’lumotlardan iborat bo‘lgan Internet reserslarini berkitishga imkon beruvchi dasturlar ishlab chiqish va targ‘ib etish;

15. Bolalarni salbiy ma’lumotlardan himoya qilishga bag‘ishlangan hujjatli dasturlar va roliklar yaratish;

16. Ushbu muammolarga bag‘ishlangan forumlar, seminar-treninglar, konferensiyalar, davra suhbatlarini doimiy o‘tkazish.

Ushbu tavsiyalar ijtimoiy tarmoqlarda axborot muhitini yaxshilash bo‘yicha siyosat va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Ular shaxsiy axborot xavfsizligini himoya qilish va axborot jamiyatining barqaror rivojlanishining muhim sharti bo‘lgan axborot makonining yaxlitligini saqlashga qaratilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.01.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

МУМИНОВ МУХАММАДБОБУР АМИРКУЛ УГЛИ

**ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ
МИРОВОЗЗРЕНИЯ ЛИЧНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

09.00.03 – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по философским науки зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.4.PhD/Fal234.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного Совета (www.psi-ik.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Мусаев Одил Рахматович доктор философских наук, профессор
Официальные оппоненты:	Муминов Алишер Гаффарович доктор политических наук, профессор Тураев Шавкат Нишоневич доктор философских наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский медицинский университет

Защита диссертации состоится «3» июля 2025 года в 12:00 часов на заседании Научного совета № DSc.30/03/30.12.2019.F.01.05 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, улица Университетская, дом 4. Малый зал здания Союза молодежи г.Ташкента. Тел.: (99871) 246-02-24; факс: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под № 93). (Адрес: 100174, г.Ташкент, Университетская улица, дом 4. Административное здание Национального университета Узбекистана, 2-этаж, 4-комната. Тел.: (99871) 246-02-24; факс: (99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «21» июня 2025 года.

(реестр протокола рассылки № 12 от «__» июня 2025 года).

И.С.Саифназаров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Г.Шодиметова

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

У.Тилабов

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. С усилением глобализации в мире информационные технологии стали играть важную роль во всех сферах нашей жизни. Современные технологии массовой коммуникации стали одним из стратегических факторов развития сегодняшнего общества, а в развитых странах они стали не только незаменимым инструментом социально-экономической деятельности, но и одним из основных субъектов системы массовой коммуникации. Эти технологии играют важную роль в решении глобальных проблем человечества и управлении социальными, культурными и политическими процессами. В современную эпоху гомогенизация информационного пространства развивается в связи с широким распространением научно-технических и технологических достижений, а также их вкладом в мировое развитие. Кроме того, социальные сети все больше играют важную роль в формировании имиджа государств, в том числе в широком распространении невообразимых достижений государств во всех средствах массовой информации. Эти процессы выводят конкуренцию и сотрудничество между государствами в современном информационном обществе на новый уровень. Ибо повсеместное распространение человеческих ценностей в формах, противоречащих моральным принципам, а также сильное влияние чуждых мировоззрению личности идей приводит к отрыву человечества от национальных и духовных основ и утрате идентичности. В результате этих процессов ослабевает культурная и духовная идентичность личности, устойчивость социальной сплочённости оказывается под угрозой. Влияние подобных факторов, распространяемых через социальные сети, на мировоззрение личности, а также их последствия и потенциальные угрозы приобретают особую актуальность для современного общества. Это оказывает сильное влияние на духовное и психологическое формирование личности, приводит к изменению социальных и культурных ценностей.

В развитых странах мира важную роль играют идеологические системы воспитания, направленные на повышение культурного уровня граждан, поведенческих моделей и процессов социализации, а также укрепление сознания, ценностей и доверия в обществе. С ускорением процессов глобализации всё более возрастает роль социальных сетей и средств массовой информации как одного из важнейших факторов, оказывающих значительное влияние на все сферы жизни человека, в частности — на формирование мировоззрения и общественного сознания личности. Сегодня, как видно из опыта развитых стран, идеологические системы воспитания, укрепляющие сознание, ценности и доверие в обществе, играют важную роль в формировании культурного уровня граждан, поведенческих норм и процессов социализации.

В то же время в результате стремительного развития информационных технологий предпринимаются попытки оказать духовно-идеологическое воздействие на сознание личности посредством современных средств коммуникации - социальных сетей, ослабить национальные ценности, изменить историческую память, сформировать идеологические ловушки, угрожающие национальным интересам. Это, в свою очередь, негативно влияет на культурную и духовную устойчивость общества.

Для борьбы с этими проблемами актуальное научное и практическое значение имеет разработка эффективных мер, основанных на социальных, правовых и

философских подходах, изучение процессов формирования мировоззрения личности в информационном обществе на научной основе и их анализ с точки зрения национальных интересов. С этой точки зрения возникает необходимость философского изучения механизмов влияния социальных сетей на сознание личности. Научные исследования в этой области, несомненно, играют важную роль в обеспечении информационной безопасности, сохранении национальных и духовных ценностей, укреплении стабильности современного общества.

Необходимо изменить влияние социальных сетей на формирование мировоззрения личности в Узбекистане в лучшую сторону. Для этого важно гармонизировать духовные и идеологические ценности. Кроме того, проводится важная работа по использованию социальных сетей для ознакомления мира с историей и современными достижениями Узбекистана и повышения имиджа государства. «В области идеологии никогда не бывает вакуума. Потому что человеческое сердце, мозг и разум никогда не перестают получать информацию, думать и подвергаться влиянию. Поэтому ему постоянно нужна духовная пища»¹. Поскольку сегодняшнее глобальное потепление обостряет борьбу за овладение умами людей, важно твердо сосредоточиться на воспитании высокой духовности и гармоничной морали. Сегодня одной из важнейших задач является воспитание молодежи на основе национальных ценностей, укрепление в ее сердцах любви и преданности Родине, предостережение и защита от различных разрушительных влияний.

